MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

A.AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT MILLIY INSTITUTI

TA'LIMDA UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI, YECHIMLARI VA ISTIQBOLLARI

Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami

1-to'plam

Toshkent - 2026

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

A.AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT
MILLIY INSTITUTI

TA’LIMDA UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI, YECHIMLARI VA ISTIQBOLLARI

Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami.
Toshkent, 2026-yil 14-may.

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ, РЕШЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ НЕПРЕРЫВНОГО ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ В СФЕРЕ ОБРАЗОВАНИЯ

Материалы международной научно-практической конференции.
Ташкент, 14 мая 2026 г.

CURRENT PROBLEMS, SOLUTIONS AND PROSPECTS OF CONTINUING PROFESSIONAL DEVELOPMENT IN EDUCATION

Materials of the international scientific and practical conference.
Tashkent, May 14, 2026.

Toshkent - 2026

uyg‘unlashtirish muhimdir. Xususan, milliy hunarmandchilik, kashtachilik, yog‘och o‘ymakorligi, pazandachilik, tikuvchilik, robototexnika va zamonaviy dizayn yo‘nalishlarini integratsiya qilish orqali o‘quvchilarda kreativ-estetik kompetensiyalarni rivojlantirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, kreativ yondashuv pedagogika nazariyasida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy faoliyati va estetik rivojlanishini ta’minlovchi muhim omildir. “Kreativlik”, “ijod” va “innovatsion tafakkur” tushunchalari texnologiya ta’limida o‘quvchilarning o‘z ijodiy ishlarini estetik jihozlash ko‘nikmasini shakllantirishda nazariy asos vazifasini bajaradi. Xorijiy tajribalar esa mazkur jarayonni dizayn fikrlash, loyiha asosida o‘qitish, fanlararo integratsiya, refleksiya va estetik baholash orqali samarali tashkil etish mumkinligini ko‘rsatadi.

Demak, texnologiya ta’limi misolida o‘quvchilarda ijodiy ishlarni estetik jihozlash ko‘nikmasini rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish nafaqat amaliy metodik vazifa, balki pedagogika nazariyasi uchun ham dolzarb ilmiy yo‘nalishdir. Bu jarayon o‘quvchilarning texnologik mahorati bilan birga ularning badiiy didi, ijodiy tafakkuri va innovatsion qarashlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Dewey J. How We Think. – Boston: D. C. Heath & Co., 1910. – 224 p.
2. Guilford J. P. Creativity // American Psychologist. – 1950. – Vol. 5. – P. 444–454.
3. Vygotsky L. S. The Psychology of Art / trans. by Scripta Technica, Inc.; introd. by A. N. Leontiev; comment. by V. V. Ivanov. – Cambridge, Mass.; London: The MIT Press, 1971. – XIV, 305 p.
4. Amabile T. M. Creativity in Context. – Boulder, CO: Westview Press, 1996.
5. Bloom B. S. Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. Handbook I: Cognitive Domain. – New York: Longmans, Green, 1956.

MAKTABGACHA TA’LIM PEDAGOGLARINING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHIDA XORIJIY TAJRIBALAR INTEGRATSIYASI

Aslanova Nozima Xakimovna
Buxoro viloyati Pedagogik mahorat markazi
Maktabgacha, boshlang’ich va maxsus ta’lim metodikalari
kafedrasi mudiri, p.f.f.d. (PhD), dotsent

Annotatsiya

Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tarbiyachilarining uzluksiz kasbiy rivojlantirishini tashkil etishda xorijiy tajribalarning muhim yo‘nalishlari tahlil qilingan. Unda rivojlangan davlatlar tajribasida kompetensiyaviy yondashuv, mentorlik, refleksiya, raqamli pedagogika, inklyuziv ta’lim hamda Ta’limning universal dizayni (TUD) tamoyillarining ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: uzluksiz ta’lim, kasbiy rivojlanish, maktabgacha ta’lim, xorijiy tajriba, kompetensiya, mentorlik, refleksiya, inklyuziv ta’lim.

Abstract

This article analyzes the important directions of foreign experience in organizing the continuous professional development of preschool educators. It highlights the significance of competency-based approaches, mentoring, reflection, digital pedagogy, inclusive education, and the principles of Universal Design for Learning (UDL) in the educational systems of developed countries.

Keywords: continuous education, professional development, preschool education, foreign experience, competency, mentoring, reflection, inclusive education.

Аннотация

В данной статье проанализированы важные направления зарубежного опыта в организации непрерывного профессионального развития воспитателей дошкольного образования. В ней освещается значение компетентностного подхода, наставничества, рефлексии, цифровой педагогики, инклюзивного образования, а также принципов универсального дизайна обучения (UDL) в образовательных системах развитых стран.

Ключевые слова: непрерывное образование, профессиональное развитие, дошкольное образование, зарубежный опыт, компетенция, наставничество, рефлексия, инклюзивное образование.

Uzluksiz ta'lim — bu insonning tug'ilgandan to umrining oxirigacha bo'lgan davr mobaynida bilim olish, malaka va ko'nikmalarini oshirib borish jarayoni bo'lib, u bir-biri bilan bog'langan, soddadan murakkabga qarab rivojlanib boruvchi bosqichlarni qamrab oladi. Bu tizim shaxsning doimiy intellektual va kasbiy rivojlanishini ta'minlaydi.

Uzluksiz ta'limning asosiy xususiyatlari va bosqichlari o’ziga xos xarakterga ega. Mantiqiy izchillik asosida tashkil etilgan ta'lim bosqichlari (maktabgacha, maktab, professional, oliy) bir-birini taqozo etadi va davom ettiradi. Bu jarayon hayot davomida ta'lim sifatida o'qish nafaqat maktab yoki universitet bilan cheklanmaydi, balki kishi faoliyati davomida davom etishini taqozo qiladi. Ushbu bosqichlarning asosiy maqsadi

kadrlar tayyorlash hisoblanadi. Uzluksiz kasbiy rivojlanish davlat tomonidan tartibga solinadi. Shuningdek, ta'lim sifati va mazmuni davlat ta'lim standartlari orqali belgilanadi. Uzluksiz ta'lim tizimi shaxsning jamiyatda moslashishi, kasbiy malakasini oshirishi va doimiy rivojlanishini kafolatlaydi. Uzluksiz kasbiy rivojlanishning asosida bolalikda egallangan sifatli ta’lim va tarbiya jarayonlari yetakchi o’rin egallaydi.

Bugungi globallashuv va innovatsion rivojlanish sharoitida maktabgacha ta’lim tizimini jamiyat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim tarbiyachilarining kasbiy kompetensiyasini muntazam rivojlantirib borish ta’lim sifati va bolalarning har tomonlama kamolotiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli rivojlangan davlatlarda tarbiyachilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraladi.

Mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagoglarini kasbiy rivojlanishi ma’lum bir davriylik asosidasi malaka oshirish bilan cheklanmaydi. U uzluksiz ta’lim, amaliy faoliyat, refleksiya, mentorlik, innovatsion metodlarni qo‘llash va xalqaro hamkorlik asosida mukammallashib borishi yo’lga qo’yilgan.

Bugungi kunda mamlakatimiz maktabgacha ta’lim jarayoniga ilg’or xorijiy tajribalarni integratsiyalash ko’pgina yo’nalishlar asosida amalga oshirilmoqda.

Rivojlangan davlatlarda maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogining faoliyati aniq kasbiy kompetensiyalar asosida baholanadi. Bu yondashuv ayniqsa Finlandiya, Singapur, Kanada va Janubiy Koreya tajribalarida keng qo‘llaniladi. Pedagogning asosiy kompetensiyalari sifatida pedagogik mahorat (Janubiy Koreyaning erkin o’yinli ta’lim faoliyati), kommunikativ kompetensiya(samarali verbal va noverbal muloqot), raqamli texnologiyalar bilan ishlash, bolalar psixologiyasini bilish, inklyuziv ta’lim ko‘nikmalari, kreativ va tanqidiy fikrlash va ota-onalar bilan samarali hamkorlik (Italiya Reggio Emilia pedagogikasi) kabilar integratsiyasi ahamiyatga molik. Mazkur davlatlarda pedagogning malaka oshirish dasturlari bolalarda aynan ushbu kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltiriladi.

Xorijiy mamlakatlarda nazariy bilimdan ko‘ra amaliy tajribaga katta e’tibor beriladi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagoglari ochiq havoda mashg‘ulotlar o‘tkazib bola faoliyatini tahlil qiladi. Refleksiv kuzatuv asosida o‘z faoliyatini tahlil qiladi. Muammolar tajribali mentorlar bilan hamkorlikda muhokama etiladi va muammoli vaziyatlar yechimlari ishlab chiqiladi. Masalan, Yaponiya tajribasida “Lesson Study” texnologiyasi keng qo‘llaniladi. Bunda pedagoglar birgalikda mashg‘ulot rejasini ishlab chiqib, uni kuzatadi va keyinchalik tahlil qiladi. Natijada pedagogik refleksiya va tajriba almashinuvi rivojlanadi. Bu texnologiya milliy tajribamizda “Ustoz-shogird an’anasi”, “O’rgan-o’rgat” strategiyalari sifatida e’tirof

etiladi. Ko‘plab davlatlarda ham yosh pedagoglar tajribali pedagoglarga biriktiriladi. Bu tizim kasbiy moslashuvni tezlashtirib, yosh xodimlarga amaliy yordam ko’rsatishga asoslanadi. Bunday tajriba pedagogik jarayonda yuzaga keladigan xatolarni kamaytiradi. Yangi faoliyatga doir kasbiy motivatsiyani oshiradi.

Singapur va Finlandiyada mentor-pedagoglar alohida tayyorlanadi hamda ularning faoliyati rag‘batlantiriladi. Kouching texnologiyasi orqali esa tarbiyachining individual rivojlanish trayektoriyasi ishlab chiqiladi. Mamlakatimizda tarbiyachilar kasbiy o’sishi uchun metodik mahorat kuni va metodik mahorat soatlari tashkil etiladi. Malaka oshirish har besh yilda bir marta amalga oshirilsada, maktabgacha ta’limga oid yangiliklar va xorijiy tajribalar har haftaning muayyan kunida tayanch va davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida mentorlar tomonidan tashkil etiladi.

Raqamlashtirish va raqamli pedagogika xorijiy ta’lim tizimining asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Pedagoglar uchun onlayn kurslar, vebinarlar, virtual seminarlar, elektron portfoliolar, masofaviy treninglar tashkil etiladi. AQSH va Janubiy Koreyada pedagoglar uchun maxsus raqamli platformalar yaratilgan bo‘lib, ular orqali doimiy o‘qish va tajriba almashish imkoniyati mavjud. Raqamli texnologiyalarning imkoniyatlari keng bo’lib, vaqt va mablag‘ni tejash, xalqaro tajribani o‘rganish, individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirish, pedagogik faoliyatni monitoring qilish imkonini beradi.

Finlandiya, Germaniya va Kanada ta’lim tizimida pedagogning o‘z faoliyatini tahlil qilishi muhim hisoblanadi. Refleksiya pedagogik kundalik yuritish, video-kontent analizlar, hamkasblar fikrini o‘rganish (fidbeg), o‘z-o‘zini baholash testlari, portfolio yuritish, rezyume va b. Bu yondashuv tarbiyachining mustaqil faoliyati va mustaqil kasbiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xorijiy davlatlarda barcha bolalarga teng imkoniyat yaratish asosiy tamoyillardan hisoblanadi. Shu sababli pedagoglar maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlash, differensial yondashuv, individual rivojlantirish dasturlari, emotsional qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tayyorlanadi. Italiya va Shvetsiya tajribasida inklyuziv pedagogika alohida ustuvor yo‘nalish sifatida rivojlangan.

Bugungi kunda mamlakatimiz ta’lim tizimiga Yunisef xalqaro tashkiloti tomonidan ta’limning universal dizayni (TUD) — barcha bolalarning individual imkoniyatlari, ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etishga qaratilgan zamonaviy pedagogik yondashuv integratsiyasi faol qo’llanilmoqda. “Ishonch-2030” loyihasi aynan shu jarayonlarni sifatli faollashtirishga qaratiladi. Ushbu yondashuv inklyuziv ta’limning muhim asoslaridan biri hisoblanadi. TUDning asosiy maqsadi - har bir bola uchun qulay, moslashuvchan va samarali ta’lim

muhitini yaratishdan iborat. Ta’limning universal dizayni (TUD) tamoyillari hamma uchun qulay ta’limiy muhitni yaratishni ko’zda tutadi.

Bolani turli usullar bilan jalb qilish - bu ta’lim va tarbiya jarayonida bolaning qiziqishi, faolligi va ishtirokini oshirish maqsadida xilma-xil metod, vosita va faoliyatlardan foydalanish asosida amalga oshiriladi. Ushbu yondashuv bolaning individual xususiyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Bunda pedagog har tomonlama mahoratli bo’lishi talab etiladi.

Axborotni turli usullarda taqdim etish - (Bilimni qabul qilishning ko‘p usulliligi). Bu tamoyilga ko‘ra, bolalarga ma’lumot bir xil shaklda emas, balki turli ko‘rinishlarda rasmlar, videolar, audio materiallar, amaliy mashqlar, sxema va diagrammalar, multimediya vositalari orqali yetkaziladi. Har bir bola axborotni turlicha qabul qiladi. Kimdir eshitish orqali, boshqasi ko‘rish yoki amaliy faoliyat orqali yaxshiroq o‘rganadi. Misol uchun pedagog “Hayvonlar” mavzusini o’tishda ham rasm ko‘rsatish, ham ovozlarini eshittirish, ham o‘yinchoqlar orqali namoyish qilish yoki videorolikdan foydalanishi nazarda tutiladi.

Bilimni ifodalashning turli shakllari - (Harakat va ifoda erkinligi) Bu tamoyil bolalarga o‘z bilim va tushunchalarini turli usullarda namoyon etish imkonini beradi. Bolaga turli usullar: og‘zaki javob, rasm chizish, sahnalashtirish, konstruktor yasash, ijodiy ishlar, rolli o‘yinlar orqali bilimini namoyon etishga imkon berishni nazarda tutadi. Barcha bolalar bir xil tarzda fikrini ifodalay olmaydi. Ayrim bolalar nutq orqali, boshqalari esa ijodiy faoliyat orqali o‘zini yaxshiroq namoyon qiladi. Misol uchun “Fasllar” mavzusi bo’yicha bolalar o’z bilimini she’r aytish, rasm chizish yoki sahna ko‘rinishi tayyorlash orqali namoyon qilish mumkin.

Zamonaviy pedagog bolalarning qiziqishi, ehtiyoji va emotsional holatini hisobga olishi zarur. Qiziqish asosida o‘rganish samarali bo‘ladi. Motivatsiya bolaning faol ishtirokini ta’minlaydi.

Elementar matematika mashg‘ulotida oddiy sanash o‘rniga didaktik o‘yin, syujetli topshiriqlar, sarguzashtli “KVEST” usullarini qo‘llash ta’limni bolaning imkoniyatiga moslashtiradi. Bunda har bir bola teng ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shuningdek, har bir bolaning rivojlanish sur’ati, ehtiyoji va qobiliyati hisobga olinadi. Ayniqsa maktabgacha ta’limda TUD tamoyillaridan foydalanish bolalarda erkin fikrlash, ijodkorlik, mustaqillik va ijtimoiy faollikni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Reggio Emilia, Montessori, Waldorf kabi xalqaro pedagogik yondashuvlardan foydalanish tarbiyachilarning ijodiy faoliyatini va tajribasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Masalan, Reggio Emilia pedagogikasida muhit “uchinchi o‘qituvchi” sifatida

qaralishi, pedagogning atelyerist sifatidagi faoliyati, loyiha asosida ta’lim jarayonini olib borish, bolalarning tadqiqotchilik faoliyati qo‘llab-quvvatlanadi. Bu yondashuvlar tarbiyachining innovatsion fikrlashi va metodik mahoratini rivojlantiradi. Xalqaro hamkorlik va tajriba almashinuvi asosida ko‘plab davlatlarda pedagoglar o’z malakalarini oshiradilar. Xalqaro seminarlar, stajirovkalar, akademik almashinuv dasturlari, xalqaro konferensiyalarda ishtirok etadi. Bu ilg‘or tajribalarni o‘rganish, yangi metodlarni amaliyotga joriy qilish, kasbiy dunyoqarashni kengaytirishga xizmat qiladi. UNICEF, UNESCO va boshqa xalqaro tashkilotlar bu jarayonni faol qo‘llab-quvvatlaydi.

Xorijiy tajribalar maktabgacha ta’lim tarbiyachilarining uzluksiz kasbiy rivojlantirilishi tizimli, innovatsion va amaliyotga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarurligini ko‘rsatmoqda. Ayniqsa kompetensiyaviy yondashuv, mentorlik, refleksiya, raqamli texnologiyalar, inklyuziv ta’lim, kreativlikka asoslangan pedagogik texnologiyalar, xalqaro hamkorlik kabi yo‘nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tajribalarni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish uzluksiz ta’lim sifati va pedagoglarning kasbiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-dekabrdagi “Maktabgacha va maktab ta’limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 867-son qarori. – Toshkent, 2024.
2. Avliyakulov N.X. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 320 b.
3. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy
4. UNESCO. Early Childhood Care and Education: Global Monitoring Report. – Paris: UNESCO Publishing, 2022.
5. UNICEF. Inclusive Education and Universal Design for Learning Guidelines. – New York: UNICEF, 2021.

ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARINI TASHKIL ETISHDA STEAM YONDASHUV

Axmedov Bahodir Yaxshimurodovich - Buxoro viloyati
PMM Tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasi dotsenti
Muqimova Gulnora Rashidovna- Buxoro viloyati
PMM Tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasi dotsenti f.f.f.d(PhD)

138. Жумаева С. Джумаева Д. “Поддержание конструктивных взаимоотношений в классе посредством социально-эмоционального обучения (sel)”.....

139. Нагметова А. “Эффективные методы формирования экологического воспитания в дошкольном образовании” .....

140. Хасанова Д.З. “Непрерывное профессиональное развитие в образовании: проблемы, тенденции и перспективы”.....

141. Эргашева А. “Актуальные проблемы непрерывного профессионального образования и пути их решения в условиях глобализации” .....

142. Эргашева А., Абдулхакимова Х. “Проблемы и перспективы непрерывного профессионального развития педагогов в современной системе образования”.....

143. Эргашева А. “Непрерывное профессиональное развитие как основа формирования педагогической компетентности”.....

2-sho‘ba. Xorijiy tajribalar asosida uzluksiz kasbiy rivojlantirishni tashkil etish istiqbollari.

144. Abdullayeva M. Ta’limning sifat–samaradorligini oshirishda xorijiy tajribalardan foydalanishning afzalliklari.....

145. Abdullayev M. “Raqamli transformatsiya davrida o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini boshqarish: xorijiy tajriba va innovatsion yondashuvlar” ...

146. Abdullayeva J. “Xorij tajribalari asosida maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish” ……

147. Abdunabiyeva L. “Ilmiy tadqiqotlarda metodlardan samarali foydalanishning nazariy asoslari” ……

148. Abduraimov Sh., Davronova R. Tarbiya fanini o‘qitish yuzasidan xorijiy tajribalar tadqiqi ……

149. Abidov H. “Texnologiya darslarida “texnologiya va dizayn” yo'nalishini rivojlantirishning zamonaviy usullari, muammolari va kreativ strategiyalari”

150. Alkarova F. “O‘quvchilarning ijodiy-estetik rivojlanishida kreativ yondashuv: xorijiy tajribalar tahlili” ……

151. Aslanova N. “Maktabgacha ta’lim pedagoglarining uzluksiz kasbiy rivojlanishida xorijiy tajribalar integratsiyasi” ……

152. Axmedov B. “Ona tili va adabiyot darslarini tashkil etishda steam yondashuv” ……

153. Axmedova O. “Xorijiy tajribalar asosida uzluksiz kasbiy rivojlanishni tashkil etish istiqbollari” ……